
VILOYATIMIZDA MAXSUS SANOAT ZONASI - “QO’QON” TEXNOPARKINI TASHKIL ETISH ISHLARI BOSHLANGAN BO’LIB, DASTLAB 70 GEKTAR MAYDONDAGI YER TAYYORLANMOQDA

Ayni kunlarda viloyatimizda maxsus sanoat zonası - “Qo’qon” texnoparkini tashkil etish ishlari boshlangan bo’lib, dastlab 70 hektar maydondagi yer tayyorlanmoqda. Hozirga qadar investorlar va tadbirkorlar turli yo’nalishlarda 10 dan ortiq yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni bildirgan.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan birgalikda bu yerda bo’lib, texnoparkdagi ishlar bilan tanishdilar.

Viloyat hokimi yer maydonlarini tayyorlash bilan bog’liq tashkiliy masalalarni muhokama qilib, texnikalarni ko’paytirish, texnopark bosh rejasini tezlashtirish, eksportbop, import o’rnini bosuvchi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo’ljallangan loyihalarini joylashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-21 22:09:23